

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>G.Jo'rayeva</b>	
Firoqiy va Partav .....	314
<b>Z.Teshaboyeva</b>	
Abduqayum yo'l doshning obraz yaratish mahorati .....	318
<b>N.J.Abdusamatova</b>	
Katta va tayyorlov guruh bolalari nutqini rivojlantirish jarayoniga integrativ yondashuv orqali maktab ta'limga tayyorlash samaradorligini ta'minlash .....	322
<b>Sh.A.Ermatova</b>	
Erkin Vohidovning "Nido" dostonini o'qitishda "Blum taksonomiyasidan foydalanish .....	326
<b>M.J.Juraboyeva</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qo'shiqlarni tinglash va tahlil etishga o'rgatishning o'ziga xosligi .....	331
<b>Sh.M.Usanov</b>	
O'zbekistonda millatlararo hamjihatlik va totuvlikning ta'minlanishida milliy madaniy markazlarning o'rni.....	334
<b>V.A.Giyosova</b>	
Glyuttonimlar bilan ifodalangan bolalarga oid murojaat birliklari .....	339
<b>Г.Р.Абдуллаев</b>	
Социокультурные и этнические особенности в развитии молодёжи в узбекских семьях под влиянием опыта пожилых.....	342
<b>J.Sh.Amayusupov</b>	
Bo'lajak pedagoglarda analistik tafakkurni rivojlantirish bosqichlari.....	345
<b>M.T.Voxidova</b>	
Abu Nasr Forobiy asarlarida insonparvarlik masalalari .....	350
<b>N.M.Xodjibolayeva</b>	
Jadid mutafakkirlarining qarashlari asosida talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik imkoniyatlari .....	354
<b>Sh.M.Muxamedov</b>	
Materialshunoslik fanining elektron-dasturiy va metodik ta'minotini takomillashtirish .....	358
<b>S.I.Raxmatullayeva</b>	
Farg'ona viloyati axborot kutubxona markazi faoliyati tarixi .....	371
<b>M.A.Junaydullayev</b>	
Buxoroda jadidchilik harakatining vujudga kelishi tarixiy shart-sharoitlari .....	377
<b>M.M.Temirova</b>	
Ichki ishlar profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlashda asosiy vazifalar va funksiyalari .....	382
<b>M.U.Kurbanov</b>	
Umumiy o'rta ta'limga maktablari pedagogik jamoasini maqsadli boshqarishda ergonomik yondashuv .....	387
<b>M.O.Batirkhanova</b>	
Badiiy asarlardagi somatik frazeologik birliklar tarjimasining kommunikativ-pragmatik xususiyatlari .....	391
<b>М.С.Ганиева</b>	
Особенности социально-философских взглядов по развитию женского предпринимательства.....	395
<b>I.A.Ismoilov</b>	
Jazo tushunchasi va uning mazmun-mohiyati xususida .....	401
<b>D.G'.Zaylobidinova</b>	
Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirishning metodik tizmi .....	405
<b>D.A.Abduraxmonov</b>	
Bo'lajak pedagoglarda kreativlik ko'nikmalarini rivojlantirish masalasiga doir .....	408
<b>M.M.Yunusov</b>	
Universitetlarda "Kimyoiy texnologiya" fanini fanlararo bog'lanish asosida o'qitishning pedagogik-psixologik jihatlari .....	416
<b>G'.M.Alamov</b>	
Sog'lim turmush tarzini to'g'ri tashkil qilishda xalq o'yinlarining o'rni.....	420

## ERKIN VOHIDOVNING “NIDO” DOSTONINI O’QITISHDA “BLUM TAKSONOMIYASI”DAN FOYDALANISH

### ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТАКСОНОМИИ БЛЮМА ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ЭПОСА ЭРКИНА ВАХИДОВА “НИДО”

### USING BLOOM'S TAXONOMY IN TEACHING ERKIN VAHIDOV'S EPIC "NIDO"

**Ermatova Shohista Abdusalomovna<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Namangan davlat universiteti, boshlang'ich ta'limdi ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi kafedrasи o'qituvchisi

#### **Annotatsiya**

*Ushbu maqolada adabiyot darslarida “Blum taksonomiyasi”dan foydalananish o'quvchilarda nazariy tushuncha va bilimlarni tasniflash hamda tizimlashtirish nuqtayi nazaridan ahamiyati hisoblanishi va Erkin Vohidovning “Nido” dostonini olyi ta'lim muasassalarida o'qitishda “Blum taksonomiyasi”dan foydalananining ijobiy tomonlari atroficha yoritilgan.*

#### **Аннотация**

*В данной статье использование “Таксономии Блума” на уроках литературы рассматривается как важное с точки зрения классификации и систематизации теоретических представлений и знаний учащихся, а также положительные стороны использования “Таксономии Блума” в преподавании эпоса Эркина Вахидова “Нидо” в высших учебных заведениях.*

#### **Abstract**

*In this article, the use of “Bloom's taxonomy” in literature classes is considered important from the point of view of classification and systematization of students' theoretical concepts and knowledge, and the positive aspects of using “Bloom's taxonomy” in teaching Erkin Vahidov's epic “Nido” in higher education institutions are detailed.*

**Kalit so'zlar:** “Blum taksonomiyasi”, “Nido” dostoni, olyi ta'lim, lirik qahramon, kognitiv, affektiv, psixomotor yo'nalishlar

**Ключевые слова:** “Таксономия Блума”, эпопея “Нидо”, высшее образование, лирический герой, когнитивная, аффективная, психомоторная направленности.

**Key words:** “Bloom's taxonomy”, “Cry” epic, higher education, lyrical hero, cognitive, affective, psychomotor directions

## **KIRISH**

Erkin Vohidovning “Nido” dostoni shoirning ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan otasiga bag'ishlagan bo'lib, dostonda urush vaqtidagi o'zbek oilalarining ma'naviy zararlari bola ko'zi bilan ko'rilib, bola tili bilan yoritiladi. Xususan, asarda Erkin Vohidov otasi yana uch askar bilan dushman hududiga razvedkaga borib, halok bo'lgani tilga olinadi. Tanqidchilar va o'quvchilar tomonidan yuqori baholangan ushbu doston filologiya yo'nalishlarining 3-bosqichida “Yangi o'zbek adabiyoti” fanidan o'tiladi.

## **NATIJA VA MUHOKAMA**

Shoir ikkinchi jahon urushining orqa frontida mehnat qilgan jafokash xalqning dard-alam va yo'qotishlarini 7-8 yoshli bolaning sodda chizgilari bilan chizadi. Bu urush farzand yoki ona uchun emas, o'zbek va yoki rus uchun emas “erk” degan sof tilak uchun qurbanlar berilayotgani ona tilidan hikoya qilinadi. 1941-1945-yillarda “Ulug' vatan urushi”ning dahshatini dostonni o'qish orqali his etar ekanmiz, shoir o'z boshidan kechirgan hayotni, o'z ko'zi bilan ko'rgan alamli yo'qotishlarni qanday bo'lsa shundayligicha lirik asarga aylantira olgan. Bugungi avlod yoshlariiga asardagi shoirning o'z tili bilan aytigan “yigirmanchi asr nidosi”ga befarq bo'imaslikni, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish uchun bu ma'naviy ozuqalarni to'g'ri singdirishi ahamiyatlidir. Adabiyot darslarining milliy va xorijiy tajribalari integratsiyasi asosida tashkil etilishi zamonaliviy adabiyot o'qituvchisi zimmasidagi mas'uliyatni yanada oshirishi tabiiy hol. Bu borada pedagogika va psixologiya sohasida so'nggi yillarda e'tirof etilayotgan ilg'or nazariyalarning samarali jihatlarini milliy metodikaga tatbiq etish ehtiyoji tug'ilmoqda.

Ma'lumki, taksonomiya[1] (yunoncha “taxis” – tartib bilan joylanish, “nomos” – qonun) butun borliqning murakkab, odatda, ierarxik tuzilmali sohalarni (jonli tabiat, Yerning tuzilishi; geografiya, geologiya, tilshunoslik, etnografiya va shu kabi obyektlar) tasniflash va tartibga solish nazariyasini haqidagi fan hisoblanadi.

## ILMIY AXBOROT

Pedagogik taksonomiya – o'quv maqsadlarining toifalari va darajalari ketma-ketligi aniq belgilangan tizimdir[2].

Fikrimizcha, adabiyot darslarida Blum taksonomiyasidan foydalanish o'quvchilarda quyidagi nazariy tushuncha va bilimlarni tasniflash hamda tizimlashtirish nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir:

- badiiy adabiyot mavzusi va maqsadi o'rtaida mavjud aloqadorlik, adabiyot va san'atga xos obrazlilik;
- muayyan bosqich, qatlam va ijtimoiy yo'nalishlarining o'ziga xos belgilarini o'zida mujassam etgan shaxslar tipi;
- badiiy obrazning tarixan shakllangan eng muhim xususiyatlari;
- adabiyotning kishilarga hissiy ta'sirining aniq va takrorlanmas, umumiylip tipik belgilari;
- badiiy obrazdagi umumiylilik va xususiyilik masalasi;
- asar kompozitsiyasi, tur va janr xususiyatlari;
- badiiy asarning yaxlitligi, unda har bir detal muayyan g'oyaviy-badiiy maqsadga bo'ysundirilgani;
- tanlangan chizgilar, hodisalar va xarakterlarning mohiyati;
- hayot manzarasini ochishga xizmat qilish;
- haqiqatning obrazlar olamida yuzaga chiqishi;
- tipik muammosining mohiyati;
- obrazlar hosil qilishda muhim vosita bo'lgan asr tili;
- hayot oqimining qamrab olinishi: xarakter, ziddiyatlar, to'qnashuvlar, tuyg'ular oqimi va boshqalar.

Adabiy ta'lif jarayonida "Blum taksonomiyasi"ning quyidagi kategoriya (mezon)lariga tayanib ish ko'rish talabalarining mavjud kreativ sifatlarini, tasavvurining kengligini aniqlash barobarida fanga oid bilimlarini turkumlashtirishga ham yordam beradi. Taksonomiya qadimgi grek tilidagi tartib, saf va qonun so'zlaridan olingan bo'lib tasniflash, tizimga solish tamoyillari va amaliyoti haqidagi bilim demakdir[3].

Quyida biz Erkin Vohidovning "Nido" dostonini Blum taksonomiyasining 3 ta maqsad va 6 ta bosqichiga muvofiq o'rganish usulini yoritishga harakat qildik. Kognitiv maqsadning 6 ta bosqichi:

<b>"Blum taksonomiyasi" darajalari</b>	<b>Tafakkur darajasiga muvofiq savol-topshiriqlar namunalari</b>
Bilish	<ol style="list-style-type: none"><li>1. Doston nima uchun "Nido" deb nomlangan?</li><li>2. Siz uni yana qanday nomlagan bo'lar edingiz?</li><li>3. Sizningcha, lirik asarning asosiy qahramoni kim?</li><li>4. Asarda ona obraziga qanday g'oyaviy mzymun yuklangan?</li></ol>
Tushunish	<ol style="list-style-type: none"><li>1. "Ikkala ko'zi bilan teng sog'inish" misralarini qanday tushunasiz?</li><li>2. "Abadiy, abadiy, Sabog'i qolur" mulohazlariga qanday qaraysiz. Hozirgi avlod urushdan saboq ololdimi?</li><li>3. She'ning globallashuv asridagi tarbiyaviy ahamiyati nimada?</li><li>4. Doston ota-onha haqidagi qarashlaringizga qay darajada ta'sir qildi?</li></ol>
Qo'llash	<ol style="list-style-type: none"><li>1. Siz ham bolaligingizda "urush-urush" o'ynaganmisiz?</li><li>2. Lirik qahramonning shikasta qalbiga qulqoq tuting. Uning "Ayriliq yo'llari olis nihoyat. Ko'chaga chiqaman yuz bora har kun," jumlasini qanday tushundingiz?</li><li>3. "Ona Yer qaytadan Yasharar bir kun" degan satrlarini o'qing, ona Yerni yoshartirish uchun siz qanday ezguliklar qila olasiz?</li><li>4. Hayolan hikoya qilayotgan bola bilan suhbatlashing. Unga nimalar degan bo'lardingiz?</li></ol>

Tahlil qilish	<ol style="list-style-type: none"> <li>His-tuyg'ular yo'lida ma'suliyat va burchni paymol qilish dinimizga qay darajada to'g'ri keladi?</li> <li>Lirik qahramonning bu harakatlarini nima deb izohlaysiz?</li> <li>Lirik qaxramonning ichki dunyosiga Vijdoni tarzida taftish uyushtiring. Bu ishingiz uning ichki "men"ida qanday evrilishlar yasashi mumkin deb o'ylaysiz?</li> <li>Syujet qismlari va kompozitsiyasini belgilang.</li> </ol>
Sintez	<ol style="list-style-type: none"> <li>Odil Yoqubovning "Muzqaymoq" asaridagi bosh qahramon bilan qiyoslab fikrlaringizni bayon eting?</li> <li>Shoir ijodidagi qaysi ramz, obrazlarda mushtaraklik bor?</li> <li>Siz she'rni qanday yakunlagan bo'lardingiz?</li> <li>Otasidan qoraxat olgan bolaga maktub yozing.</li> </ol>
Baholash	<ol style="list-style-type: none"> <li>Nima deb o'ylaysiz, davlatlar o'tasida muammolarni hal qilish uchun urush to'g'ri yo'lmi?</li> <li>Asardagi ona siz bo'lsangiz farzandingizga qanday tasalli berardingiz?</li> </ol>

"Blum taksonomiyasi" o'qituvchi tomonidan tarbiyalanuvchilar oldiga qo'yiladigan qator topshiriqlarni ta'lif maqsadlariga muvofiq tarzda: kognitiv, affektiv, psixomotor yo'naliishlarida tasniflanishini nazarda tutadi. Ta'larning bu uch yo'naliishini oddiyroq qilib "bilaman", "his qilaman" va "yarataman" so'zlari bilan ifodalash mumkin. Bilimlarni o'zlashtirishning "**affektiv**" (**his qilaman**) yo'naliishi (lotincha "affektus" so'zidan olingan bo'lib, ichdan to'lqinlanish ma'nosini anglatadi) shaxsning portlash xarakteridagi qisqa muddatli va yuqori intensiv emotsiunal holatini nazarda tutadi. Blum taksonomiyasida ifodalangan "**psixomotor**" maqsadlar asbob-uskunalarga, o'quv qurollari, texnika vositalariga moslashishni nazarda tutadi. Psixomotor maqsadlar amaliy ko'nikmalarni o'zgartirish va rivojlantirishni ko'zlaydi. Blum taksonomiyasining 3 maqsadi:

Psixologiya ilmida "kognitiv" (bilaman) so'zi axborotni qabul qilish va uni qayta ishlash ma'nosida, insoning ruhiy holati (ishonish, xohish-istiklari va maqsadlari)ni ifodalashda qo'llaniladi. "Kognitiv" ta'lif bilimlarni o'zlashtirish va o'zlashtirilgan axborotlarni amaliyotda qo'llay olishni nazarda tutadi[4]. Kognitiv maqsad bilish, tushunish, tahlillash, umumlashtirish, qo'llash kabi kategoriyalarini o'z ichiga oladi.

Shoir Erkin Vohidov ijodini oliy ta'linda o'rganishda rejalashtirilgan birinchi ma'ruza mashg'ulotini o'qituvchi shoir hayoti va ijodi bilan bog'liq bilimlarini tekshiruvchi savol-topshiriqlar bilan boshlashi maqsadga muvofiq.

Maqsadga o'tadigan bo'lsak, "Nido" dostonini Blum taksonomiyasi orqali o'rganib, undagi real fikrlarga asoslangan holda shoir tabiatini ochishga urinib ko'rdik

*Olis sohillarda,  
Ufqdan nari  
O'lim sochmoqdadir  
Yov quzg'unlari.  
O'lim sochmoqdadir  
Elga beayov.  
Shahar qishloqlarni  
Yutmoqda olov.  
O'sha olis yurtda  
Qon kechib hozir*

*Otang hayot uchun  
Jang qilayotir.  
Ellarning erk degan  
Sof tilagi deb,  
ahonning nurafshon  
Kelajagi deb,  
Ofat solmasin deb  
Olamga qotil,  
Otang uzoq yurtda  
Jang qilayotir.*

## ILMIY AXBOROT

- Ulug' Vatan urushi haqida nimalarni bilasiz?
- Siz bugungi kunda yashayotgan urush qatnashchilaridan taniysizmi? Ular bilan urush haqida suhbatlashganmisiz?
- “Dunyo qayg'usiga bo'limgan oshno” deya ta'riflangan bolalik chog'larini siz qanday eslaysiz?
- *Qadamlar, dadamlar* qofiyadosh so'zlarini shoir qanchalik mahorat bilan qo'llay olgan?
- “Yo'l bosar ekan Mening murg'ak xatim bekatma-bekat. U yoqdan, Xuddi u borar manzildan Yo'lga chiqqan edi mash'um qora xat. Misralarini o'qiganda nimalarni his qildingiz?
- Nima deb o'ylaysiz, ona Yer ingrashi mumkinmi?

## ADABIYOTLAR TAHLILI

She'rni o'qib adib shaxsiga xos qanday fazilatlarni ko'rish mumkin? kabi savol-topshiriqlar ustida ishslash o'quvchini Erkin Vohidov shaxsiyati haqidagi bilimlar bilan boyitadi. Mazkur ma'lumotlarga “Blum taksonomiysi” nazari bilan yondashishning kognitiv yo'nalishi, ya'ni bilish jarayoni, deyish mumkin. Asar tahliliga kirishishdan oldin o'qituvchi o'quvchilarga jahon urushlari haqida haqida ma'lumot berishi maqsadga muvofiq bo'ladi. O'quvchilar matn mohiyatiga chuqur kira olishlari uchun jahon urushlari haqida bilimga ega bo'lishlari kerak:

Birinchi jahon urushi (28-iyul 1914 - 11-noyabr 1918) – odamzod tarixidagi eng yirik qonli urushlardan biridir. Birinchi jahon urushida dunyoning 38 davlati ishtirok etdi. Ularda 1,5 mlrd. dan ortiq aholi yashar edi. Urushga 74 mln. ga yaqin kishi safarbar etildi. Jami 10 mln. kishi o'ldirildi, 20 mln kishi esa yarador b'oldi. Bundan tashqari, juda ko'p kishilar kasallik va ochlikdan o'lib ketdi. Birinchi jahon urushida uning asosiy ishtirokchilari bo'lgan davlatlar o'z milliy boyliklarining uchdan bir qismini yo'qotdilar.

Ikkinci jahon urushi (1-sentyabr 1939 - 2-sentabr 1945) — XX asrda sodir bo'lgan jahon tarixidagi eng yirik urush. Ikkinci jahon urushida 61 ta davlat qatnashgan Ulardan ayrimlari faol harbiy harakatlarni olib borishardi, boshqalari o'z ittifoqdoshlariga oziq-ovqat yetkazib berardi, ko'pchilik esa urushda faqat nominal holda ishtirok ishtirok etardilar. Ikkinci jahon urushi yillarda fashizmga qarshi qo'lga qurol olib jang qilgan o'zbekistonlik jangchilarning umumiyligi tarkibidan 263000 dan ziyod kishi halok bo'ldi, 132670 kishi bedarak yo'qoldi, 60452 vatandoshimiz urushdan nogiron bo'lib qaytdi. Shuningdek, yurt uchun minglab o'zbekistonlik jangchilar asirlikda bo'ldi.

Bu o'quvchilar she'r matni ustida ish olib borishlari uchun zarur bo'lgan bilim hisoblanadi. Adabiyot fanini tarix fani bilan integratsiya (lot. Integratin – tiklash, qaytadan bog'lash, to'ldirish, fanlarning yaqinlashishi va o'zaro bog'lanish) qilish ham deyiladi. Ta'llimning keyingi bosqichlarida o'quvchilarning faoliyatida juda ham qo'l keladi. Bu ma'lumotlarni o'zlashtirish jarayonini ham kognitiv yo'nalish, bilish jarayoni, deymiz. Ma'lumki, biror badiiy matnni o'rganishda o'quvchi muallifning tabiatni, qiziqishlari, hayoti haqida qancha ko'p ma'lumotga ega bo'lsa, uning asarini o'rganish shuncha mukammal bo'ladi. Ayniqsa, asar muallifi bilan o'quvchi shaxsiyatida, xarakterida o'xshashlik jihatlar kashf etilsa, tarbiyalanuvchi shaxsida yozuvchi shaxsiga muhabbat paydo bo'ladi. Bu muhabbat kitobxonni ushbu yozuvchining asarlarini qiziqib, qidirib topib o'qishga majbur qiladi. Shunday asarlar sifatida Tog'ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar”, Odil Yoqubovning “Muzqaymoq” asarlarini olishimiz mumkin.

## XULOSA

Affektiv maqsadlar insonning tuyg'ulari, emotsiyasi va munosabatlari bilan bog'liqdir[5]. O'quvchilar she'r matni ustida ishslash mobaynida (lirik qahramonga) muallifning fazilatlarni ilg'ay bilsalar, qahramonning ruhiy holatini boshdan kechira olsalar, o'qituvchi shunga erisha olsa, adabiy ta'lif maqsadiga yaqinlashilgan, ya'ni talabalar insonni anglashga o'rganib borayotgan bo'ladilar.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Taksonomiya>
2. <https://milliycha.uz/pedagogik-taksonomiya/>
3. Husanboyeva Q, Neyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. –Toshkent: Innovatsiya-ziyo, 2020. – B. 211.
4. [https://ru.wikipedia.org/wiki/Википедия.Свободная\\_энциклопедия](https://ru.wikipedia.org/wiki/Википедия.Свободная_энциклопедия).
5. Veli Savash Yelok. Yoshlik // 2016-yil, 12-son. – B.36
6. Vohidov E. Inson. Toshkent. 2018. “O'qituvchi”
7. Normatov U, 2016-yil, 25-noyabr. Mohir-u mehr-u mahorat. O'zbekiston adabiyoti va san'ati.
8. Вохидов Э. Шеър дунёси. Сайланма. Иккинчи жилд. -Т.: Шарқ. 2001.-351 – Б.
9. Вохидов Э. Сайланма. 2 томлик. -Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986.
10. Усмонова О. Ёзувчи ҳаёти ва ижодини адабий таҳлил ҳамда талқин усулларига таяниб ўрганиш. Пед.фн.ном. дисс... -Т.: 2007. 140 – Б.

11. Б обоев Т. Олий ўкув юртларида ўзбек шеърияти поэтикаси асосларини ўрганиш: Пед. фан. док. дисс... автореферати. -Т.: 1998.
12. Умурев Ҳ. Бадиий ижод асослари. - Т.: Ўзбекистон, 2001. 119 – Б.